Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH MAQSADIDA AHOLINING IJTIMOY HIMOYALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH



Kasimova Gulyar Axmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Byudjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrası professori, DSc

Annotatsiya: Mazkur maqolada Davlat budjetidan aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarning zaruriyati va ahamiyati, shuningdek kambag‘allikni kamaytirishda ushbu xarajatlarning g‘azna ijrosi natijalari tahlil etilgan. Davlat budjetining aholini ijtimoiy himoyalashga yo‘naltirilgan xarajatlari doirasida ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, ijtimoiy soha xarajatlari, budjet tashkiloti, ijtimoiy himoya xarajatlari, pensiya tizimi, pensiya fondi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, kambag‘allik.

Abstract: This article analyzes the necessity and importance of state budget expenditures on social protection of the population, as well as the results of treasury execution of these expenditures in reducing poverty. Practical proposals and recommendations have been developed for the effective use of state budget funds allocated for social protection of the population.

Key words: state budget, social expenditures, budgetary organization, social protection expenditure, pension system, pension fund, average life expectancy, poverty.

Аннотация: В данной статье анализируются необходимость и значение расходов государственного бюджета на социальную защиту населения, а также результаты казначейского исполнения данных расходов в снижении бедности. Разработаны практические предложения и рекомендации по эффективному использованию средств государственного бюджета, выделяемых на социальную защиту населения.

Ключевые слова: государственный бюджет, расходы социальной сферы, бюджетная организация, расходы на социальную защиту, пенсионная система, пенсионный фонд, средняя продолжительность жизни, бедность.

KIRISH

Jamiyatda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan to‘liq ta‘minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga moddiy yordam ko‘rsatish – davlat ijtimoiy siyosatining muhim va ajralmas tarkibiy qismidir. Insoniyat sivilizatsiyasi vujudga kelgan davrdan boshlab hozirgi kungacha jamiyatda keksalar, mehnatga layoqatsizlar, nogironlar, voyaga yetmaganlar va boshqa ijtimoiy ta‘minotga muhtoj shaxslarning jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy ne‘matlardan teng huquqli tarzda bahramand bo‘lishini ta‘minlovchi tizim shakllanib kelmoqda.

Bugungi kunda ham ijtimoiy ta‘minot, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va pensiya ta‘minotini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–175-son¹ Farmoniga muvofiq, kambag‘allikni kamaytirish maqsadida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hajmini oshirish, qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy dasturlar qamrovini kengaytirish va og‘ir hayotiy sharoitga tushib qolgan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar olib borilmoqda.

1 <https://lex.uz/docs/-6130265>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjetidan aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarning zaruriyati, ahamiyati va ushbu xarajatlarning g'azna ijrosi natijalari mazmun-mohiyati iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

Masalan, "Jahon miqyosida ijtimoiy himoya yo'nalishlari quyidagilardan iborat: yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik holatlari; kasallik va tug'ruq; ish faoliyatida jarohatlanish; ishsizlik; oilaga ijtimoiy nafaqalar" [9].

Iqtisodiyot bo'yicha 1998-yilgi Nobel mukofoti sohibi, hindistonlik iqtisodchi Amartiya Senning nazariy ishlanmalari inson salohiyatini rivojlantirish masalasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning konsepsiyasida inson imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillar muhim o'rin egallaydi. A. Senning fikricha, ijtimoiy rivojlanishning maqsadi ishlab chiqarishni cheksiz ko'paytirish emas, balki insonlarga ko'proq ishlash, bilim olish, uzoq umr ko'rish, kasalliklardan xoli hayot kechirish imkoniyatini yaratishda namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan fuqarolar ijtimoiy ahvolini yaxshilashda foydalanishi lozim.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasining iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatini ochib berishda vatanimiz olimlari ham o'z hissasini qo'shgan. A.V. Vahobovning fikricha, "bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya o'z yo'nalishini o'zgartirdi, ya'ni ijtimoiy himoya aholining hayot kechirish uchun zarur ne'matlarni eng kam darajada ta'minlay olmaydigan kambag'al qatlamlariga manzilli tarzda yo'naltiriladi" [8]. Muallifga ko'ra, "manzilli ijtimoiy himoya" deganda, aholining aynan ehtiyojmand qatlamiga qisqa muddatli ijtimoiy kafolatlarni taqdim etish tushuniladi.

O'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olim Q.X. Abdurahmonov esa quyidagicha izoh beradi: "Ijtimoiy muhofaza tizimi – aholining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlovchi soha bo'lib, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ijtimoiy muhofazalanish huquqi esa insonning munosib turmush kechirish uchun zarur bo'lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati hisoblanadi" [7].

Hozirgi kunga kelib, Yer yuzida 60 yoshdan oshgan aholining ulushi ortib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga borib ularning soni 1 milliard 100 ming kishiga yetadi. Bu ko'rsatkich 1950-yilga nisbatan 5 barobar ko'p bo'lib, ayni paytda Yer sayyorasi aholisi atigi 3 barobar ko'payishi kutilmoqda [13]. Dunyo aholisining bunday demografik tarkibi xorijiy mamlakatlarda, xususan MDH davlatlarida ham qariyalarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda esa 2020–2030-yillarga kelib pensiya yoshidagi aholining umumiy soniga nisbatan ulushi ortishi kutilmoqda. Bu holat esa xarajatlarni manzilli yo'naltirish, daromadlarni tabaqalashtirish, hamda ijtimoiy himoyaning muhim bo'lagi bo'lgan pensiya tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, tizimdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, xususiylar va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini isloh qilish, hamda pensiya mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Rossiyalik olim G.V. Cherkasskaya bu borada quyidagicha ta'kidlaydi: "Ijtimoiy himoya insoniyat jamiyati paydo bo'lganidan buyon mavjud bo'lib, u doimiy rivojlanib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hodisadir" [15].

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining IX bobi, 46-moddasida ijtimoiy ta'minot haqida shunday deyilgan: "Har kim keksaligida, mehnat qobiliyatini yo'qotganida, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega" [1]. Yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan ushbu o'zgarishlar fuqarolarning ijtimoiy himoya tizimiga oid huquqlarini kafolatlash, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish, hamda sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida davlat tomonidan belgilab berilgan yo'nalishlar asosida amalga oshirilmoqda.

Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyada nogironlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmagan edi. Hozirgi kunda esa O'zbekistonda nogironligi bo'lgan 1 millionga yaqin shaxs, jumladan, 16 yoshgacha bo'lgan 100 mingdan ortiq nogiron bola istiqomat qilayotganini inobatga olsak, yangi Konstitutsiyada nogironlar huquqlarining alohida moddada mustahkamlanishi hamda ijtimoiy kamsitishni qat'iyana taqiqlovchi normalarning kiritilishi g'oyat muhim ijtimoiy-huquqiy qadamdir.

O'zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi doirasida erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar aniq belgilangan. Jumladan, 8-maqсад quyidagilarni nazarda tutadi: "Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli yetkazilishini ta'minlash, kambag'al oilalarning qashshoqlikka tushishiga yo'l qo'ymaslik, oilalarni kambag'allikdan chiqarish; ijtimoiy yordamni – oilani kambag'allikdan olib chiqishga xizmat qiluvchi vosita sifatida foydalanish. Shu maqsadda kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan bolalar nafaqalarini ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish tizimini joriy etish, ushbu shartnomada mablag'larni inson kapitalini rivojlantirishga – bolalarning maktab, maktabgacha va boshqa ta'lim muassasalariga qatnashi kabi shartlar asosida yo'naltirish, ijtimoiy yordam dasturlarini bandlikka



ko'maklashish dasturlari bilan bog'lash, kam ta'minlangan oilalarning ishsiz a'zolarini ish bilan ta'minlash va kelgusida ijtimoiy shartnoma shartlarini yanada kengaytirish lozim" [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, qiyosiy taqqoslash kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xalq farovonligini oshirish, odamlarning hayot darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarda obodonlashtirish ishlari mamlakat iqtisodiy strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvoldagi shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va e'tibor ko'rsatish kabi ezgu qadriyatlar hozirgi kunda yangicha mazmun kasb etib, amaliy harakatlar bilan boyitilib bormoqda.

Bu borada "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi ijtimoiy dasturlar ijobiy natijalar bermoqda. Tashabbusli budjetni shakllantirish asosida, faqat "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlarda jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Muhtoj fuqarolarni aniq maqsadli moddiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishda e'tibor dotatsiya berishga emas, balki aholining kam ta'minlangan qatlamlariga daromad topish imkonini beruvchi sharoit yaratishga qaratilmoqda. Yoshlar o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, ularni o'zini o'zi band qilishga rag'batlantirish yo'lida "Yoshlar daftari" dasturi doirasida ish olib borilmoqda. Jumladan, "Temir daftar"dagi oilalar farzandlaridan 2 mingdan ortiq talabaga kontrakt to'lovlari to'lab berildi.

Yurtimizda inson omili oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Odamlar ertaga emas, bugun baxtli yashashni istaydilar" degan tamoyil hozirgi siyosatimizning asosiy yo'nalishiga aylanganining o'zi ushbu yondashuvning tub mohiyatini ifodalaydi. Xususan, mamlakatimizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga yetkazildi. Agar 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 2 milliondan oshdi. Ajratilayotgan mablag' miqdori esa 7 barobarga ko'payib, yiliga 11 trillion so'mga yetkazildi [14].

Kam ta'minlangan oilalar farzandlarini parvarish qilish bo'yicha nafaqalar qamrovi kengaytirildi. Nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan bolalarning yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi. To'lov muddati 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi va o'rtacha nafaqa miqdori 1,5 barobarga ko'paytirildi. 2022-yildan boshlab oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan bir oylik o'rtacha daromad minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kam bo'lgan taqdirda, bu oila kam ta'minlangan deb e'tirof etilishi belgilab qo'yildi.

Kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi joriy etildi. Oxirgi uch yil davomida kam ta'minlangan, nafaqa oluvchi oilalar soni to'rt barobarga ortib, 1,9 millionga yetkazildi.

"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi" tushumlari 37,3 milliard so'mni tashkil etdi. Jamg'armaning daromadlari, asosan, tijorat banklariga imtiyozli asosda kreditlar ajratish uchun berilgan resurslar qaytimi va hisoblangan foizlardan tushgan 32,3 milliard so'm mablag' hisobiga shakllandi. Bundan tashqari, jamg'armaga Davlat budjetidan 50 milliard so'm miqdorida transfert ajratildi. Yil boshiga qoldiq mablag'lar bilan birga jamg'arma xarajatlari jami 204 milliard so'mni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari dinamikasi [19].

№	Xarajatlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		soni	mlrd.so'm	soni	mlrd.so'm	soni	mlrd.so'm
	Jami	3831582	19703	4030611	19291	3391245	18632
	jumladan						
1.	Kam ta'minlangan oilalar uchun moddiy yordam	2 118 141	11 442,4	2 198 965	12 337,5	1 830 069	10 333,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muxtoj oilaga bir martalik moddiy yordam	17 772	20,7	24 150	19,2	25 484	21,0



3.	Bolalikdan nogironlik nafaqasi	332 6112	632,8	332 667	913,5	362 805	3 662,3
4.	Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik to'lov	909 087	571,9	928 800	664,9	555 000	382,4
5.	Ayrim toifadagi aholi uchun imtiyozlar o'rniga kommunal to'lovlar uchun kompensatsiya to'lovlari	73 095	141,8	77 757	132,1	77 757	188,1
6.	Zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar va nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqalar	221 795 1	395,8	285 353	679,9	329 023	526,6
7.	Dafn uchun to'lanadigan nafaqa	154 894	192,4	162 460	268,1	166 126	246,7
8.	Etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash	245	60,3	774	120,1	822	140,1

Davlat budjetida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun 18,1 trillion so'm ajratilishi, daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj jami 52 mingdan ortiq fuqaroga ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun budjet mablag'lari hisobidan 1,1 trillion so'm subsidiya to'lab berilishi ko'zda tutilgan. So'nggi olti yilda ijtimoiy yordam ko'lam 5 barobar oshirilgan va 2 milliondan ortiq oila qamrab olingan. Hozirgi kunda har bir ehtiyojmand oila budjet xarajatlari va 3 ta "daftar" tizimi orqali moddiy yordam olmoqda. Bu maqsadlarga budjetdan har yili ajratiladigan mablag' 18 trillion so'mga yetgan. Holbuki, 2016-yilda bu ko'rsatkich 2,2 trillion so'mni tashkil etgan [14].

Respublikamizda ijtimoiy nafaqalar manzilliligini oshirish va monitoring qilib borish choralari ko'rilmogda. Ijtimoiy ta'minotga yo'naltirilgan mablag'ning YalMdagi ulushi 2,5 barobar oshib, 2016-yildagi 0,9 foizdan 2022-yilda 2,2 foizga yetgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasini takomillashtirish hamda fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida quyidagilar amalga oshirildi:

Kam ta'minlangan oila maqomini belgilash bo'yicha amaldagi mezonlar takomillashtirildi. Ma'lumot uchun: Jahon banki bilan birgalikda o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, mamlakatimizda 14 foiz uy xo'jaligi kam ta'minlanganlar qatoriga kiritilgan. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" orqali esa 23 foiz oilalarga ijtimoiy nafaqa to'lovlari amalga oshirilgan. To'lanadigan nafaqalar bo'yicha amaldagi mezonlarni takomillashtirish orqali haqiqatda muhtoj oilalar ijtimoiy nafaqa tizimi bilan qamrab olingan.

2024-yildan boshlab kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar tegishli mahalliy budjetlardan emas, balki O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan moliyalashtirilmoqda.

Ijtimoiy himoya sohasidagi tadbirlarni to'laqonli moliyalashtirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi jamg'armasining xarajatlari 3,3 trillion so'm miqdorida shakllantirildi.

Respublikadagi issiqlik ta'minoti korxonalariga aholiga pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida vujudga kelgan zararlarni qoplash maqsadida ajratiladigan subsidiya xarajatlari uchun 2024-yilda 2 197 milliard so'm mablag' ajratildi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlar amalga oshirildi: – og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarni moddiy qo'llab-quvvatlashga 50 milliard so'm; – xotin-qizlarni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlashga ko'maklashuvchi, ularning muammolari bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlariga grant mablag'larini ajratishga 30 milliard so'm; – og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni turar-joy bilan ta'minlash uchun boshlang'ich badalni to'lab berishga 30 milliard so'm; – xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni, hunarmandchilikni tashkil etishda, shuningdek, ana shunday faoliyat uchun imtiyozli kreditlar ajratish maqsadida resurslar ajratishga 50 milliard so'm.



Kelgusi o'rta muddatli davrda fiskal siyosat "O'zbekiston–2030" Strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga, tashqi siyosiy va iqtisodiy vaziyatning O'zbekistonga ta'sirini yumshatishga, makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikni ta'minlashga, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga, aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirishga hamda uzoq muddatli inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratiladi.

2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotni aholi jon boshiga 4 ming AQSh dollaridan oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlagan holda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turish zarur.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ bo'lgan agentlik hamda uning joylardagi bo'g'inlari tashkil etilishi negizida, birinchi navbatda, fuqarolarni davlat tomonidan manzilli himoyalashning professional tizimini joriy qilish, ko'makka muhtoj qatlamning ijtimoiylashuvini ta'minlash, faoliyatda mahalla darajasigacha kirib borish, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarga individual yondashuvni ta'minlash, ijtimoiy sug'urta mexanizmi qo'llovini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay hayotiy muhit yaratish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha, birinchi navbatda, moliyaviy yordam dasturlarini kuchaytirish lozim. Ijtimoiy yordam dasturlari maqsadli bo'lishi kerak. Bunda aholining eng muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga yordam ko'rsatish mexanizmlarini joriy etish zarur. Qisqa muddatli yordam asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qilsa, uzoq muddatli yordam aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Muhtoj aholi uchun foizsiz yoki past foizli kreditlarni taklif etish ularning biznes boshlashi yoki qo'shimcha yordam olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtojlar uchun qarz to'lovlarini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatlarini yaratish zarur.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish dasturlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish ko'nikmalarini oshirish, yangi bizneslarni tashkil etish va rivojlantirish uchun grantlar hamda subsidiyalar berish mexanizmini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy yordamga muhtoj aholi uchun onlayn platformalar orqali ariza topshirish va yordam olish imkoniyatlarini yaratish zarur. Ijtimoiy yordam dasturlari haqida keng axborot tarqatish va aholining xabardorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, dasturlar samaradorligini tahlil qilish, ularning aniq va maqsadli ishlashi uchun nazorat mexanizmlarini joriy qilish lozim.

Ijtimoiy yordam taqsimotida shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish ham muhim vazifadir. Shu sohada xalqaro tajribani o'rganish, mutaxassislar malakasini oshirish uchun xorijiy ta'lim va treninglarda ishtirok etish, xalqaro tashkilotlar hamda donorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali moliyaviy yordam va texnik ko'mak olish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Bu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi 2026-yilgacha rejalashtirilgan ijtimoiy himoya tizimi va moliyaviy mexanizmini mustahkamlash chora-tadbirlarida quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Ijtimoiy shartnomalar orqali davlat ijtimoiy yordami tizimini yaratish;

Davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda (mahalla tamoyili asosida) ijtimoiy ish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish;

Ota-ona qaramog'isiz qolgan barcha yetim va uy-joyga muhtoj bolalarni uy-joy bilan ta'minlash;

"Ijtimoiy himoyaning yagona reestri" axborot tizimini aholining barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari va ularga ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy yordam hamda xizmatlar uchun yagona ma'lumotlar bazasiga aylantirish;

Vazirlik va idoralar bilan elektron ma'lumot almashinuvini kengaytirish, Energetika vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Personallashtirish markazining ayrim ijtimoiy xizmatlari ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish;

Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlash mezonlarini takomillashtirish.

Fikrimizcha, "natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish" uslubi byudjet jarayonini va davlat boshqaruvini tashkillashtirish tizimi bo'lib, unda byudjet xarajatlarini rejalashtirish erishilayotgan natijalarga qarab amalga oshiriladi. Eng muhimi, bu model rejalashtirilgan byudjet xarajatlari va kutilayotgan natijalar o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettiruvchi byudjetni shakllantirish tizimidir.

Byudjetlashtirishda mazkur modelning maqsadi – sarflangan resurslar hamda olingan bevosita va ijtimoiy natijalarning muvofiqligini nazorat qilish, byudjetdan moliyalashtiriladigan faoliyatning ahamiyati, ijtimoiy va



iqtisodiy samaradorlik darajasiga baho berishdan iborat. Davlat byudjeti davlatning funksiyalari va vazifalarini mablag' bilan ta'minlashga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, natijaga yo'naltirilgan byudjet tizimini ijtimoiy himoya sohasi byudjetini shakllantirishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning manzilligini oshirish, ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni baholash mezonlari hamda oila a'zosiga to'g'ri keladigan daromadni hisoblash usulini doimiy ravishda takomillashtirib borish va soddalashtirish, shuningdek, oilaning kam ta'minlanganligini aniqlash uchun kambag'allik chegarasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 30 апрель. – 50 бет.
2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 2013 йил 26 декабр. www.lex.uz/
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 25 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолисини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 175-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ““Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги 158-сон Фармони.
5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2022 йил. 20 декабрь. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
6. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Тошкент.: “Fan va texnologiya”. 2019. 426 б.
7. Ваҳобов А.В. Бозор муносабатларига ўтиш босқичидаги кўп укладли иқтисодиёт ва унинг тақдирини ҳосил бўлиши. Монография. – Т.: Молия. 2002. –Б.36.
8. John W.R. Phillips Social Security Programs Throughout the World: Europe. 2016. ISSA.
9. Касимова Г.А. Бюджет назорати. Дарслик. Тошкент.: 2023 йил. “IQTISOD-MOLIYA”. 360 б.
10. Касимова Г., Аметова Ф.Р. Хорижий мамлакатларда ижтимоий ҳимоя харажатларини молиялаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. // Иқтисод ва молия. Т. 2019. №11. –Б.46-54.
11. Шолдаров Д.А. Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини қўллаб-қувватлашни молиявий механизмларини такомиллаштиришнинг концептуал асослари. Монография. –Тошкент.: Проспект. 2024. -192 бет.
12. Маҳкамova Ш. Қарияларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг хорижий тажрибаси.\\ Молиячи. – Тошкент. 2015. июл-август. №7-8. – Б.4.
13. Оболумурадов Н. Х. Янги Ўзбекистонда ижтимоий давлат ва адолатли жамият қуришнинг тарихий-ижтимоий жиҳатлари. “Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari” (E)ISSN: 2181-1784 4(21), May, 2024 www.oriens.uz
14. Черкасская Г.В. Общая теория социальной защиты: предмет, источники, элементы, основные положения и закономерности, принципы и парадоксы. <https://cyberleninka.ru/article>
15. https://api.mf.uz/media/document_files/Budget_P24_uz.pdf
16. https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025_Fiskal_strategiya.2023-2025.
17. https://api.mf.uz/media/document_files/budjetnoma_2024-2026_u7oVHcU.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
